

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

*Toshkent viloyati Nurafshon shahar 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Mirsaitova Guzal Baxodirovna**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o'quvchilarning ilk maktab davridagi o'qish faoliyati bilan bog'liq ta'limiy va fiziologik jarayonlar yug'unligi, bu jarayonda bolaning idrok etish qobiliyatini to'g'ri rivojlantirish masalalari to'g'risida amaliy ma'lumotlar taqdim etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xotira, individual, qobiliyat, iqtidor, mantiq, tafakkur.*

*«O'zini kamol toptira olmagan inson o'zgalar kamolotini ta'minlay olmaydi»*

***Konfutsiy***

Maktabga borish bolalarning hayotida juda-katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi. 6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishni talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va bartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Bog'chadan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarish yuz beradi. Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi. Aksincha, ta'lim so'z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So'z mantiq xotirasining mavjudligi ma'nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma'lumki, bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra ma'nodor tushunchalarni bir muncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega.

Iqtidor - bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi. Psixologik lug'atda "iqtidor" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi.

1. Iqtidor bu - faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini

ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;

2. Iqtidor bu - insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

3. Iqtidor bu - aqliy potensial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi;

4. Iqtidor bu - tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o'ziga xosligi va ularning namoyon bo'lishi darajalari;

5. Iqtidor bu - iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi. Umumiy qobiliyat egalari yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi. Maxsus qobiliyat egalari esa-biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o'ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo'lgan va mana shu faoliyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar.

Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan bolalardir. Xorijiy tadqiqotchilar fikricha, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, individual va guruhli ishlari, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va kollejdandan tashqari ta'lim olish imkoniyatlarini ham yaratish, kasb-hunar ta'limi muassasalarining asosiy vazifasi bo'lishi kerak. Fransuz olimi K. Allegr ta'kidlaganidek, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, ularning individual va guruhli ishlarini, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ham kasb-hunar o'quv yurtlarining asosiy vazifasidir.

Psixologlarning tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda bilimlarini shakllantirish o'qituvchi rahbarligida, maqsadli tashkil qilingan faoliyat jarayonida samarali rivojlanadi va bu pedagogik jarayonda o'z aksini topadi.

Faqatgina samarali tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchida o'quv muammosini mustaqil hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish va o'rganilayotgan bilimlar yuzasidan kelib chiqqan muammolarni ijodiy yechish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun ham biz bugungi kunda zamonaviy ta'limning vazifasi, maqsadi, o'rnini va rolini yaqqol tasavvur qila olishimiz kerak.

Biz hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan o'quv-tarbiya jarayonida va pedagogik adabiyotlar va tadqiqot ishlarida, "mustaqil ta'lim", "mustaqil ish" tushunchalarining mohiyatini yoritishga harakat qildik. Ba'zan mustaqil holda o'qish va mustaqil ta'lim tushunchalari adashtiriladi. Mustaqil holda o'qish rasmiy o'quv jarayonidan tashqarida kechishi mumkin, ya'ni muayyan ta'lim muassasiga bormay turib, uyda o'zi o'quv materiallari asosida mustaqil, individual holda o'qishi va o'rganishi mumkin. Mustaqil ta'lim - belgilangan o'quv topshiriqlarini tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy bajarishlari asosida o'tadigan o'quv faoliyatidir. Mustaqil ta'lim negizini mustaqil ishlar tashkil etadi. Biz mustaqil ta'limni pedagogik tamoyillarga asoslanib tashkil etish kerak, deb o'ylaymiz. O'quvchilarning ongliligi va faolligi tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin. Shundagina biq o'quvchilarning ta'lim olish jarayonlarini to'ri tashkil etgan bo'lamiz.

Masalan: Mustaqil bilim olish va o'rganishda o'quvchilar harakati guruhdagi o'quvchilar quyidagi tartibda bo'lishi mumkin:

1. O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi (odatda 3-4 ta)
2. Har bir kichik guruh o'tilgan mavzular bo'yicha bir nechta savol (yoki topshiriq) lar tuzadilar.
3. So'ngra guruhlar o'zaro savollar bilan almashadilar.
4. Guruhlar "raqib" guruh tuzgan savollarga javob beradilar va eng ko'p savolga to'g'ri javob bergan guruh muvaffaqiyat qozongan deb hisoblanadi.

Demak, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quv jarayonining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida o'quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, o'quvchida jarayonlar va hodisalar, ob'ektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o'rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU. 2000. 52.b.
2. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova

G.A., Levkina M.F. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi O'UM. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.

3. G'ulomova X., Yo'ldosheva sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. -T.: TDPU, 2013. - 70 b.